

“БУХОРО ШАШМАҚОМИ: ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ”

**МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА
ИЛМИЙ АМАЛИЙ АНЖУМАН**

МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ

2019 йил 25 февраль



Бухоро - 2019

хар томонлама ташкилий, таълим-тарбиявий-ташкilotчилик фаолияти орқали таъсир кўрсатиш тизимли ёндошишнинг хусусий холи тарзида ҳал қилиниши лозим.

Тарбияга ҳар томонлама ёндашиш талабага таъсир кўрсатувчи воситаларни мақсадга, шакл ва методларга мувофиқ танлашни тақозо қилади. Тарбия воситалари деганда сўз орқали таъсир, ташвиқот, оммавий ахбарот воситалари, даврий нашрлар бадий адабиёт, санъат, радио, телевидениелардан ўринли фойдаланиш кўзда тутилади. Уларни таъсирчанлигини ошириб, ихтисослашган ва табақалашган ҳолда уларни тарбияланувчилар хусусиятига қарата танлаш ҳам муҳим ҳисобланади.

Тарбиявий жараёни тизимли ташкил қилиш тарбиячилардан маълум назарий ва методологик тайёргарликни талаб қилади. Улар энг аввало тарбия жараёни моҳияти, қонуниятлари, методлари ва принциплари ҳақида батафсил маълумотга эга бўлишлари зарур. Бундан ташқари улар тарбиянинг тизим, яъни таркибий қисмлари ҳақида ҳам чуқур маълумотга эга бўлишлари лозим. Шулар асосида улар тарбиявий ишларни ўзаро боғлиқлик механизмларини, яхлит истикболи ва жорий режалаштириш масалаларини ҳал қилишлари мумкин бўлади. Тарбиянинг умумий назарий ва таркибий қисмларининг мазмунини, шакл ва методларини билмасдан, бу жараён иштирокчилари фаолиятини, таркибий қисмлар ва йўналишларни алоқадорлиги ва мувофиқлаштиришни амалга ошириб бўлмайди.

Бу масалалар билан бирга тарбиявий жараёни талаб даражасида ташкил қилиш илмий методик, моддий база яратиш ҳам жуда зарур. Комплекс ёндашишни амалга ошириш қуйидагиларни назарда тутати:

- тарбиявий иш мақсади, принциплари, йўналишларнинг яхлитлигини;
- тарбия таркибий қисмларини тарихий тажриба, ташкilotчилик фаолияти, урф-одат, анъаналар билан уйғунликда амалга ошириш;
- тарбияланувчига таъсирни яқка ва жамоавийлигини таъминлаш;
- талабаларга табақалашган ёндашиб, жамоа ҳамма аъзоларига бирдай таълим жараёнида, уни бошқаришда тарбиявий таъсир кўрсатиш;
- тарбиявий таъсир кўрсатишда ҳамма шакл, воситалар, методлардан фойдаланиш;
- тарбиявий жараён иштирокчилари ҳаракатларини ўзаро мувофиқлиги асосида талабаларни мунотазам шахсини шаклланишини бошқариш.

Тарбияга комплекс ёндашишнинг моҳияти шундаки, бунда инсоннинг бир ёки бир неча сифатини эмас, балки бутун комплекс сифатларнинг яхлитликда ва ўзаро боғлиқликда шаклланишини таъминлашни тушунмоқ керак. Тарбияга комплекс ёндашиш тарбия олиб боровчилар фаолиятини бирлаштириб, ягона мақсадга қаратишда ва унда ҳар бир иштирокчининг ўз ўрнини тўғри белгилашини ҳам аниқлатади. Комплекс ёндашиш тарбия воситаларининг имкониятларини ва ўзаро алоқадорлигини, педагогик жиҳатдан мақсадга мувофиқ иш кўришини ҳам ўз ичига олади.

Тарбияга комплекс ёндашиш уни уч жиҳатини алоҳида ажратишни тақозо қилади: ғоявий-сиёсий, сиёсий-предметли-мақсадлилиқ ва функционал.

тарбия субъектлари-давлат, олий ўқув юртлари давлат ташкilotлари, нодавлат ташкilotлар, ижодий уюшмалар, таълим муассасалари, мактабдан ташқари таълим-тарбия муассасалари, сиёсий партиялар, ёшлар ташкilotлари, хотин қизлар кўмиталари ва оиладан иборат. Шу билан бирга маданий оқартув муассасалари, маданият уйлари, клублар халқ ижодий уйлари, кутубхоналар, музейлар, театр, кинотеатрлар, оммавий ахбарот воситалари ҳам фуқаролар ва талабалар ўртасида тарбиявий иш олиб борадилар.

Тарбияга комплекс ёндашишнинг функционал жиҳати унинг мақсадини амалга оширишга қаратилган бўлиб, тарбияни тизим сифатида ривожланишда қараш билан бирга, унинг шакл, метод, воситалари, ташкил қилиш ва режалаштиришни яхлитлигини таъминлашни тақозо қилади. Тарбияга бундай ёндашиш унинг ҳар томонлама шахсга таъсирини амалга ошириш воситаси ҳисобланади.

YOSHLARNING MA'NAVITY-MA'RIFIY VA MA'NAVITY-AXLOQIY TARBIYASIDAGI GLOBAL NEGIZLAR MISOLIDA

Y. Abdullayev

BuxDU Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'ining
ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha
o'rinbosari, dotsent, mayor

Mamlakatda huquqiy demokratik davlatni mustahkamlash va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqadorligi, yaxlitligi, uning barkamol avlod tarbiyasi tizimida tutgan o'rni, tarixiy ildizlari, qadimgi Sharq ma'naviy-axloqiy tarbiya taraqqiyoti, kasb-hunar kollejlari ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni, maqsadi, vazifalari, ilmiy pedagogik asoslari va uni takomillashtirish yo'llarini ochib berishimiz kerak. Shuningdek, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy barkamolligini tarkib toptirishning pedagogik texnologiyalari, yo'nalishlari, auditoriyadan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarining shakllari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Jamiyatimiz a'zolari hisoblangan yoshlar ma'naviy qiyofasiga davlatning olib borayotgan siyosati, millatning, xalqning urf-odati, e'tiqodining ham ta'siri beqiyos. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da aytib o'tilganidek, yoshlarga berayotgan ta'lim, tarbiyamiz sifati jahon andazalariga mos kelishi, ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitishda hayotiy dolzarb masalalarni kuyib, elektron darsliklar va adabiyotlar yaratib, masofaviy

ukitishni yulga kuyishimizni hozirgi kun talabidir. Hozirgi kunda oliy ta'limning zamonaviy ilg'or goyalaridan unumli foydalanish dunyoviy tarbiya bilan ming yillik tarixga ega bulgan qadriyatlardan foydalanish dunyoviy tarbiya bilan diniy tarbiyaning ma'lum jihatlari uygunlashtirish orqali iymonli, e'tiqodli insonlarni tarbiyalash muxim. Hozirgi tezkor asrimizda bo'layotgan ma'naviy, g'oyaviy tahdidlar, parokandaliklarga sabab bo'lishi mumkin. Buning oqibatida yoshlarimizda insoniylik, mehr-oqibat, samimiylik kabi ma'naviy fazilatlariga putur yetishi mumkin. Ma'naviy merosni yoshlar ongiga singdirishda qobiliyatli pedagoglarning urni beqiyostir. Ular albatta samimiy, insonparvar, keng ma'lumotli pedagogik faoliyatga layoqatli, o'quvchilar, talabalar bilan til topisha oladigan bo'lishi, shu bilan birga milliy g'oyaning targ'ibotchisi bo'lishlari lozim. Yoshlarda bilimga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otishimiz, ular ongiga bilim har qanday muammoning kaliti ekanligini, bilim olgani sari inson yetuklik sari ilgarilab borishini singdirishimiz kerak. Xususan, ta'lim tizimida talaba yoshlar ongiga shunday fikrni singdirishimiz kerakki, qanday maqsadlarga erishishi ularning irodali, bilimli, fidokor, mehnatsevar va tarbiyali bo'lishiga bog'liq ekanligini o'zlari anglab yetsinlar. Bunyodkor g'oyalarni o'z vaqtida ularning ongiga singdirish, Vatanimiz ravnaqi, yoshlarimiz baxt-saodatining asosiy shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun biz Vatanimiz ravnaqi, yo'lida munosib bilim va tarbiyaga ega bo'lgan, halol, pok, mehnatsevar, o'z ishini mustaqil bajara oladigan irodali yoshlar bo'lishimiz bugungi kun talabidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, mahalla, o'quv muassasalari juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o'zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, bala-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'analarga sodiq bo'lib kamol topishsin.

OILADA BOLA TARBIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sh. Alimova

Kogon maktabgacha ta'lim va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji o'qituvchisi

O'zbek xalqining o'z ruhiy qiyofasi, milliy xususiyati, milliy xarakteri, milliy tuyg'usi mijozi (temperamenti), xulq atvori, didi, ta'bi, alohida ajralib turadi. Bola axloqini odobini takomillashtirish avvalo oiladan boshlanadi. Oilaviy tarbiy ijtimoiy tarbiyaning bir bo'lagidir. Oila – mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila jamiyat negizi bo'lib, ko'p asirlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo oila muhitida singadi. bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi". Har bir millat o'ziga xosligi, milliy madaniyati, milliy adabiyoti, milliy tili va shu millatning ruhiy (ma'naviy) tarzining majmuasida, ya'ni milliy ruhiyatida o'z ifodasini topadi. Binobarin, xalq va elat ma'naviyatli va ruhiyatini yosh avlodga singdirish uchun ishini oiladan boshlash kerak. Oilada farzand tarbiyasining pedagogik- psixologik xususiyatlarini analiz qilinganda, axloqiy tarbiyani izchil va tartibli amalga oshirishda oila muhim rol o'ynaydi. Inson axloqiy ma'naviy va ruhiy qiyofasining poydevori oilada qo'yiladi.

Ma'lumki, yosh avlodga tarbiya berish uchun ota- onalar ham tarbiyaning vazifasi, maqsadi, vositalari, shart-sharoitlari yuzasidan har tomonlama bilimga ega bo'lishlari, farzandlarning Yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ish yuritishlari lozim Ota- onalar o'rtasida o'zaro munosabatda hamjihatlik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, shirinso'zlik, bir –biriga g'amxo'rlik mavjud bo'lsa, bunday munosabat farzand tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Kam farzandli oilalarda ota- onalar farzandlarini ortiqcha erkalaydilar. Natijada farzand erka, o'jar, tantiq, shaxsiyatparast bo'lib voyaga yetishi mumkin. Oilada qat'iy intizom va kun tartibining bo'lishi bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Farzandlarning bilim olishdagi yutug'i, axloqi, salomatlik darajasiko'pji hatdan oilada qaror toptirilgan rejimga bog'liq. Ota- onaning ibrati, bu rejimga oqilona amal qilib namuna bo'lishlari zarur. Oila o'ziga xos turmush o'chog'idir. Bunda mehnat asosiy o'rin egallaydi.

PEDAGOG TAYANCH KOMPETENSIYALARI VA ULARNING MOHIYATI

G. Sodiqova

Kogon shahar 4-maktab o'qituvchisi

Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Bu talab o'qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Bugungi kunda dunyo ta'limini yangilashning asosiy yo'nalishi ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko'ra olish, unda tizimli faoliyat ko'rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.

Kasbiy tayyorgarlik natijasi "kasbiy kompetentlik" tushunchasi yordamida aniq va to'liq tasvirlanishi mumkin.

Kasbiy kompetentlik integral xususiyatga egadir. U kasbiy faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan vaziyatlarda kasbiy muammolar va kasbiy topshiriqlarni hal eta olish qobiliyati va tayyorlik darajasi bo'lib, bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy va hayotiy tajribani, qadriyatlar va madaniyatni ishga solishni nazarda tutadi.

M. Umurova. Yuqori sinf o'quvchilariga bastakorlik san'ati tarixini o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	69
Э. Файзуллаев. Ўзбек халқ кўшиқлари тарбия манбаи	70
Н.Хужаева. Бадий ҳаваскорлик тугаракларида талабаларни ғоявий тарбиялаш технологияси	71
З. Якубов. Бошланғич синф мусика дарслари жараёнида педагогик технологияларни қўллаш.....	73
Jo'rabek Yarashev, Jumayeva S. Musiqa darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yo'llari (Skarabey texnologiyasi misolida).....	74
Ж.Т.Ярашев. Мусика маданияти дарсида миллий мусика аъёналари воситасида ўқувчиларни тарбиялаш	75
3-ШЎБА.....	77
Q. Qurbonov, N. Raxmatov, D. Sayfutdinova. An'anaviy cholg'uda ijro etishni o'rgatishning asosiy vazifalari.....	77
Д. Юсупов. Ўзбек мусика санъати ривожда фольклорнинг ўрни ва аҳамияти.....	78
Ф.Нуруллаев. Мусика таълимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти.....	80
З. Очилов. Хор овозлари аппарати ва унинг ишлаш қонун қоидалари.....	81
Т.Ражабов. Бухоро болалар фольклор кўшиқларини ўргатиш орқали ўқувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш	82
П. Рахматов, Мухитдинова М. Қашкар рубобида ижро дастурини тайёрлаш бўйича амалий машғулотларни ташкил этиш.....	83
С.Д. Дўстов, Сайфутдинова Д. Фольклор кўшиқлари – бадий тушунчани ўстирувчи восита.....	84
S. Xudayberganov. Zamonaviy tuzilishdagi an'anaviy qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati	85
О. Шодиева, Э. Қиличев. Бошланғич синф мусика дарсларида болалар фольклор кўшиқларини ўргатиш муаммолари	87
Н. Шомирзаева, Жалилов Ш. Навоий воҳасида фольклор санъатининг ривож.....	88
4-ШЎБА.....	89
I. Qayumov, Jo'rayeva M. Buxoro afg'on rubobi tarixi xususida	89
Sh. Qobilov. Talabalarining mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirish muammolarining ilmiy –nazariy tahlili (qalamtasvir fani misolida)	90
А. Хидиров. Хоразм дутор ижрочилик аъёналарини бизнинг давримизгача сақлаб келган устозлар таъкираси	91
А.Қазоков. Миллий қолғу созларимиз тараққиёти	93
Said Bolta-Zoda Saidiy, Z. Ahmadova, M. Ahmadova. Temur va Temuriylar davrida musiqa	94
Ж. Атамуратов. Мир культуры.....	95
Ж. Ражабов. Абу Наср Форобийнинг мусиқий қарашлари (873-950)	97
О. Қодиров. Нафосат тарбиясининг воситалари	98
Qirg'izov I, Sultanov A. Qudratimiz birlik va hamjihatlikda	99
Ш. Қулиева. Ёшларга касб-хунар таълим беришда педагогик қobiliятларни шакллантириш	100
О.Х.Узоков, М.М.Тураев. Соматическая культура и ее место в системе явлений культуры	102
N. Berdiqulova, Sh.Majitov. Milliy istiqloq va zamonaviy musiqa taraqqiyoti.....	103
Найимова М. Б.Мадримов. Алишер Навоийнинг мусикага оид қарашлари	104
А.С.Мусинова, Д.Солиева. Бухоро халқ амалий санъати	105
О. Fayziyev. O'zbek xalqining shakllanish davrida musiqa madaniyati.....	107
Д. Пўлатова. “Абдуллонома” маънавий-маърифий манба.....	108
Р.С.Баймуратов. Относится ли тело человека к миру культуры.....	109
С. Самадова. Алишер Навои покровитель искусства.....	110
О.О. Fayziyev. O'rta Osiyoning qadimiy musiqa madaniyati.....	111
Б. Хайруллаев. Ўзбек мумтоз мусиқий асарларининг тарбиявий аҳамияти.....	112
Я.Файзиёв, Ш.Марданова. Спорт в различных культурах	114
5-ШЎБА.....	116
Р. Сафарова. Ўқувчи-ёшларни маънавий-ахлоқий ривожлантириш мақсадида уларнинг бўш вақтини тўғри ташкил этиш йўналишлари.....	116
Ш. Ҳайитов, У. Аҳмадова. “Оташин юзлук муғаннийки, халқидин мулойим суруд чикорғай...”	117
Э. Мухторов. “Касбий маҳорат” тушунчаси, унинг тузилмаси ва даражалари	118
Ш. Қулиева. Рақобатбардош мутахассисларни тайёрлашда меҳнат таълими ўқитувчиларининг ўрни	121
Ш. Норова. Тарбиявий фаолиятга комплекс ёндашув	122
Y. Abdullayev. Yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy va ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi global negizlar misolida	123
Sh. Alimova. Oilada bola tarbiyasining psixologik xususiyatlari	124
G. Sodiqova. Pedagog tayanch kompetensiyalari va ularning mohiyati	124
D. Tosheva, L. Ahmedova. Globallashuv davrida “ommaviy madaniyatning” yoshlar tarbiyasiga ta'siri	125
F. Rasulova. Axloqiy tarbiyaning mavjud metodlarini takomillashtirishga yangicha yondoshuvlarning bugungi kunda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni	127